

## Polimerlar sohasida hamkorlik

Joriy yilning 26-27 sentyabr kunlari O'zR FA Polimerlar kemyosi va fizikasi instituti tashabbusi bilan tashkil etilgan «Polimerlar haqidagi fanning istiqbollari» mavzusida O'zbekiston-Rossiya Mikrosimpoziumi o'tkazildi. Mikrosimpozium ishtirokchilari Polimer fanining istiqbolli yo'nalishlari, polimerlar haqidagi nanofan sohasida Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston olimlari yutuqlari, sanoat tarmoqlari, polimerlarni olish, qayta ishlash va qo'llash borasida ish yuritayotgan korxonalar, kompaniyalarning ilmiy ishlanmalarga bo'lgan ehtiyojlari. hamda polimerlar sohasiga taaluqli muammolarga bag'ishlangan ma'ruzalar bilan tanishdilar.



Mikrosimpozium yakunlari bo'yicha bo'lib o'tgan davra suhbatida polimerlar haqidagi fan sohasidagi mavjud muammolarni hal etish, olimlarining ilm-fan, ta'lim yo'nalishlarida va tadqiqot natijalarini kommersializatsiyalashda chambarchas, o'zaro manfaatli va samarali hamkorlik qilishlari yuzasidan muhokamalar olib borildi. Umid qilamizki, o'tkazilgan Mikrosimpozium Respublikamizda polimerlar haqidagi fanning yanada rivojlanishiga yoshlarning ijodiy kamol topishi, ularning ilmiy salohiyatidan to'laqonli foydalanish, o'z kasbining haqiqiy egalari bo'lishlari uchun zamin yaratibgina qolmay Respublikalarimizda mazkur istiqbolli yo'nalish – polimerlar haqidagi fanni rivojlantirish maqsadidagi Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikalari olimlari hamkorligini yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

